




Xalq so'zi

O'zbekiston —
kelajagi
buyuk
davlat

2025-YIL – ATROF-MUHITNI ASRASH VA “YASHIL” IQTISODIYOT YILI

1991-yil 1-yanvardan chiqa boshlagan

WWW.XS.UZ

E-mail: Info@xs.uz

2025-yil 17-dekabr, № 264 (9159)

Chorshanba

Saytimizga o'tish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling.



2026-YIL TOSHKENT SHAHRI UCHUN “JADAL RIVOJLANISH VA AHOLI DAROMADLARI O'SISHI” YILI BO'LADI

Prezident Shavkat Mirziyoyev 16-dekabr kuni ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar jarayonlari bilan tanishish hamda kelgusidagi vazifalarni faollar ishtirokida belgilab olish uchun Yunusobod tumaniga tashrif buyurdi.



Davlatimiz rahbari dastlab Toshkent shahri Yunusobod tumanida barpo etilgan yirik quvvatli kogeneratsiya stansiyasi faoliyati bilan tanishdi.

Poytaxtda aholi va iqtisodiyot obyektlarini qish mavsumida issiqlik energiyasi bilan barqaror va uzluksiz ta'minlash maqsadida bir vaqtning o'zida elektr va issiqlik ishlab chiqaradigan bir qator zamonaviy kogeneratsiya qurilmalari ishga tushirilmoqda.

Yunusobod tumanidagi 4-issiqlik markazi hududida davlat-xususiy sheriklik asosida barpo etilgan, quvvati 100 MVt bo'lgan mazkur loyiha ana shunday muhim tashabbuslardan biridir. Xitoyning “CNTIC” kompaniyasi bilan hamkorlikda amalga oshirilgan loyiha 3,5 gektar maydonda joylashdi. Uni moliyalashtirish uchun 65 million dollar to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiya yo'naltirildi.

Davlatimiz rahbari markazning ish jarayoni bilan tanishdi.

Kogeneratsiya inshootiga Buyuk Britaniyaning “Rolls-Royce” kompaniyasining 70 ta gaz-porshen uskunasi o'rnatildi.

Qozonxonalardan iste'molchilargacha bo'lgan issiqlik ta'minoti infratuzilmasi rekonstruksiya qilindi. Issiqlik magistrallari yangilandi. Tarmoqlar izolyatsiyali quvurlar bilan almashtirildi. Bu esa turli darajadagi energiya yo'qotishlarining oldini olish imkonini beradi.

Markaz ishga tushirilishi natijasida yiliga 876 million kilovatt-soat elektr energiyasi va 858 ming gigakaloriya issiqlik energiyasi ishlab chiqariladi. Shu bilan birga, yiliga 35 million kubometr tabiiy gaz iqtisod qilinadi.

Endilikda poytaxtning Yunusobod,

Olmazor, Shayxontohur, Mirzo Ulug'bek va Yakkasaroy tumanlarida joylashgan jami 1 ming 846 ta obyekt doimiy issiqlik energiyasi bilan ta'minlanadi. Ularning 1 ming 400 tasi aholi xonadoni, qolgan qismi esa ijtimoiy soha obyektlaridir. Shuningdek, 292 ming xonadonga elektr energiyasi barqaror yetkazib beriladi.

Loyiha ishga tushishi bilan issiqlik energiyasini ishlab chiqarish uchun sarflanadigan xarajatlar 40 – 45 foizga kamayadi. Atmosferaga chiqadigan ifloslantiruvchi moddalar miqdori sezilarli darajada qisqarib, oqova suv tashlamalari yuzaga kelmaydi.

Shu yerning o'zida Prezidentimiz kuz-qish mavsumiga tayyorgarlik bo'yicha amalga oshirilgan ishlar va issiqlik markazlarini rivojlantirish, Toshkent issiqlik elektr stansiyasini modernizatsiya qilish, poytaxtda obodonlashtirish ishlarini takomillashtirish bo'yicha takliflar, shuningdek, anomal sovuq sharoitida xizmatga jalb etiladigan kuch va vositalarni taqsimlash yuzasidan taqdimotlar bilan tanishdi.

Poytaxtda 11 ming 630 ta ko'p qavatli uy bor. Ularga 358 ta boshqaruv servis kompaniyasi xizmat ko'rsatmoqda. Davlatimiz rahbari ularning mavsumga qay darajada shayli bilan qiziqdi.

– Shahar sharoitida boshqaruv servis kompaniyalari faoliyati aholi hayoti bilan uzviy bog'liq. Shu bois ular soat mexanizmiday aniq, uzluksiz ishlashi kerak. Buning uchun zarur shart-sharoitlar yaratilmoqda. Endilikda soha xodimlarining dunyoqarashi va yondashuvi ham o'zgarishi lozim. Aholining holidan xabar olib, ko'p qavatli uylarning yerto'la va tom qismlarini, yo'laklar va o'yin maydonchalarini tartibli saqlash zarur, – dedi Prezident.

Shuningdek, energetika, obodonlashtirish, qurilish va servis tarmoqlari mas'ullariga mavsum davomida tizimli va muvofiqlashgan holda ishlash yuzasidan tegishli topshiriqlar berildi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev Yunusobod tumanida joylashgan “Yunusobod galereyasi” savdo, xizmat ko'rsatish va biznes markaziga tashrif buyurdi.

Ikki yarim gektar maydonni egallagan ushbu yirik majmuada 53 ming kvadrat metrdan ziyod savdo va tijorat maydonlari tashkil etilgan. 14 million dollarlik xorijiy investitsiya hisobiga qator xorijiy brendlar o'z faoliyatini yo'lga qo'ygan.

Umuman olganda, majmuada 100 dan ortiq savdo nuqtalari ochilib, 500 ga yaqin ish o'rinlari yaratilgan. Markazga yiliga 2,5 million nafargacha tashrif buyuruvchi kelishi kutilmoqda.

Loyiha qiymati 43 million dollar bo'lgan ushbu majmuaning arxitektura-dizayn yechimi joriy yil MDH davlatlari o'rtasida o'tkazilgan xalqaro me'morchilik tanlovida birinchi o'rinini egallagan.

Prezident shu yerda ochilgan kitob do'konida nashriyotlar vakillari hamda kitobxon yoshlar bilan suhbatlashdi.

Kitob savdosini rivojlantirish, umuman olganda, mutolaa madaniyatini bolalikdan boshlab keng ommalashtirishning muhimligi, shuningdek, ilmiy va badiiy adabiyotlar nashrini kengaytirish, bu borada nashriyotlarni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqish zarurligi ta'kidlandi.

Poytaxt faollari, nuroniylar va yoshlar bilan samimiy suhbat bo'lib o'tdi.

– Barcha sohalarida erishilayotgan

natijalar, avvalo, yurtimizdagi tinchlik va xalqimiz hamjihatligi samarasidir. Poytaxtimiz kun sayin obod va ko'rkam qiyofa kasb etmoqda. Buni chet eldan kelayotgan mehmonlar ham alohida e'tirof etmoqda. Birdamlikda gap ko'p. Uning ildizi, eng avvalo, mahallalarimizda. Adolatli bahoni ham xalqning o'zi, shu mahalla beradi. Shuning uchun odamlarni rozi qilishga qaratilgan ishlarimizni eng quyi bo'g'indan boshladik, – dedi Prezident.

Markazga tashrif doirasida davlatimiz rahbariga shu yerda faoliyat yuritayotgan “Unicon-Soft” IT kompaniyasi faoliyati taqdim etildi.

Mamlakatimizda axborot texnologiyalari sohasida yaratilgan qulay shart-sharoit va imtiyozlar natijasida davlat boshqaruvini raqamlashtirish, aloqa infratuzilmasini yaxshilash, IT ta'limini rivojlantirish kabi ko'plab yo'nalishlarda milliy dasturiy mahsulot ishlab chiqaruvchilarning ishtiroki izchil kengayib bormoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ma'muriy islohotlar doirasida raqamli texnologiyalar sohasida davlat boshqaruvini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida”gi Farmoniga muvofiq soha, tarmoq va hududlarni raqamli transformatsiya qilishning asosiy yo'nalishlari belgilangan.

Ushbu jarayonga Yunusobod tumanida faoliyat yuritayotgan “Unicon-Soft” kompaniyasi ham munosib hissa qo'shib kelmoqda. 2017-yilda tashkil etilgan korxona shu kunga qadar respublika bo'ylab 70 dan ortiq dasturiy tizimlar ishlab chiqqan va joriy etgan.

Kompaniyaning barcha hududlar hamda 208 ta tuman (shahar)da axborot tizimlarini joriy qilish va texnik qo'llab-quvvatlash bo'yicha filiallari mavjud. Ularda 1,5 mingdan ortiq xodimlar faoliyat yuritmoqda, shundan 80 foizini yoshlar tashkil etadi.

Ayni paytda “Unicon-Soft” tomonidan raqamlashtirish yo'nalishida dasturiy bilim va texnik vositalar ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish, bo'xona faoliyatini raqamlashtirish, shuningdek, “Raqamli mahalla” platformasini joriy etish rejalashtirilgan. Davlatimiz rahbari kompaniyaning ushbu yo'nalishdagi loyihalarini taqdimoti bilan tanishdi.

Milliy IT mahsulotlar ishlab chiqarishni yanada rivojlantirish, yoshlarning sun'iy intellekt texnologiyalari sohasidagi bilim va ko'nikmalarini oshirish, davlat idoralarda raqamlashtirish jarayonlarini jadallashtirish bo'yicha tegishli tavsiyalar berildi.

Shuningdek, Prezidentimiz Rixsiliy ko'chasida amalga oshirilgan obodonlashtirish ishlari va zamonaviy infratuzilmani ko'zdan kechirdi.

Ko'chaning ikki kilometrlik qismida muhandislik va transport infratuzilmasi tubdan yangilandi. Shuningdek, 24 soat faoliyat yuritadigan savdo, umumiy ovqatlanish hamda ko'ngilochar

obyektlar tashkil etildi. Natijada 650 ta ish o'rni yaratildi.

Hududda kuniga o'rtacha 35 mingga yaqin avtotransport vositasi harakatlanadi. Buni inobatga olgan holda aholi xavfsizligi va harakat qulayligini ta'minlash choralarini ko'rildi. Jumladan, 39 ming kvadrat metr piyodalar yo'laklari barpo etildi. Yuzga yaqin videokuzatuv kameralari hamda o'nga yaqin favqulodda chaqiruv tugmalari o'rnatildi.

Davlatimiz rahbari O'zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasining yangi binosi va o'quv-ilmiy faoliyati bilan tanishdi.

Prezident Shavkat Mirziyoyevning 2022-yil 28-noyabrdagi “Jinoyatlarni tergov qilish sohasida malakali kadrlarni tayyorlashning sifat jihatidan yangi tizimini joriy etish to'g'risida”gi Farmoni doirasida Bosh prokuratura Akademiyasi negizida O'zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasi tashkil etilgan edi.

Akademiyaga qisqa vaqt ichida tor ixtisoslashgan ta'lim muassasasidan prokuratura va tergov-surishtiruv organlari uchun kadrlarni yagona yondashuv asosida tayyorlaydigan, ta'limning uzluksiz tizimiga ega bo'lgan, to'laqonli ixtisoslashtirilgan oliy ta'lim va ilmiy-tadqiqot muassasasiga aylandi.

Akademiyaning professor-o'qituvchilari va boshqaruv xodimlari tarkibi prokuratura, huquqni muhofaza qiluvchi organlar, ilmiy va ekspertlik muassasalarida amaliy tajribaga ega malakali kadrlar bilan to'ldirildi.

O'tgan davrda akademiyaga birlashtirilgan hududdagi infratuzilma izchil kengaytirilib, besh qavatli ma'muriy bino, zamonaviy oshxona, mehmonxona va talabalar uchun kovorking maydoni qaytadan barpo etildi hamda konferens-zal, kutubxona tubdan rekonstruksiya qilindi.

Bundan tashqari, 2 ta o'quv korpusi va 2 ta yotoqxona binolari qayta ta'mirlanib, ta'lim oluvchilarni qamrab olish imkoniyati ikki baravarga oshirildi. Hozirda esa ochiq va yopiq sport majmualarining qurilishi davom etmoqda.

Nazariya va amaliyot uyg'unligini ta'minlash maqsadida kriminalistika poligonlari, sud protsessi imitatsiyasi uchun maxsus zallar, Gezell oynasi bilan jihozlangan so'roq va tanib olish xonalar, kiberpoligon, “darknet” va sud-ekspertizasi laboratoriyalaridan iborat jami 12 ta maxsus xona barpo etildi.

Akademiyada oliy ta'limning ikki bosqichli tizimi – bakalavriat va magistratura yo'lga qo'yilgan. 2023/2024 o'quv yilidan mamlakatimizda ilk marotaba “Turli tizim – yagona yondashuv” tamoyili asosida bakalavriatning “Tergov faoliyati” va “Prokurorlik faoliyati” ta'lim yo'nalishlarida o'quv jarayonlari tashkil etildi. Kiberjinoiyatlarga qarshi kurashishga yo'naltirilgan “kiberprokuror” va “kibertergovchi”larni tayyorlash uchun kelgusi yildan boshlab “Kiberhuquq”

bakalavriat yo'nalishi tashkil etiladi.

Magistraturada “Tergov faoliyati”, “Prokurorlik faoliyati” shuningdek, milliy ta'lim tizimida yagona bo'lgan “Korrupsiyaga qarshi kurash faoliyati”, “Inson huquqlariga oid xalqaro huquq” mutaxassisligi bo'yicha kadrlar tayyorlash yo'lga qo'yildi. 2025/2026 o'quv yilidan boshlab, “Kiberxavfsizlikni huquqiy ta'minlash” mutaxassisligi bo'yicha magistratlar tayyorlanadi.

Malaka oshirishning sifat jihatidan yangi tartibi joriy etilib, prokuratura va tergov organlari xodimlarining har uch yilda kamida bir marta uzluksiz malaka oshirish tizimi yo'lga qo'yilgan.

Prokuratura organlarining rahbar kadrlarini qayta tayyorlash, yangi qabul qilingan xodimlarning boshlang'ich ixtisoslashuvini ta'minlash, vakolatli organlar surishtiruvchi va tergovchilarini qayta tayyorlash bo'yicha yangi tizim yaratildi.

Masofaviy va aralash kurslar hamda xodimlarning ehtiyojlariga asoslangan ta'limning elektiv modeli qo'llanib kelinmoqda. Bu har bir xodimga butun xizmat faoliyati davomida shaxsiy ta'lim trayektoriyasi bo'yicha o'z malakasini uzluksiz oshirib borish imkonini yaratadi.

Portal orqali masofaviy va aralash kurslarni sun'iy intellekt texnologiyalari asosida joriy etish yo'lga qo'yildi. Bunda sun'iy intellekt asosida yaratilgan virtual assistent va haqiqiy tergov amaliyotida uchraydigan muammoli vaziyatlarni aks ettirgan raqamli simulyatsiya videolari keng qo'llanilmoqda.

Aholiga bepul huquqiy maslahat berish uchun yuridik klinika va maxsus elektron platforma faoliyati yo'lga qo'yilgan. Bu faoliyatga talabalar jalb etilib, tajribali mutaxassislar rahbarligida amaliy ko'nikmalarini shakllantirmoqda. Bundan tashqari, Korrupsiyaga qarshi kurashish ilmiy-ta'lim markazi tashkil etilgan. Mazkur yo'nalishda magistratlarni tayyorlash, shuningdek, ilmiy kengash faoliyatini ilmiy uslubiy jihatdan ta'minlash yo'lga qo'yildi.

Kiberjinoiyatchilik va boshqa global tahdidlarga qarshi kurashish hamda bu borada malakali mutaxassislarni tayyorlash maqsadida o'tgan yilda Prezidentimizning tegishli qarorlari asosida akademiya tarkibida Raqamli kriminalistika ilmiy-tadqiqot instituti tashkil etildi.

Ahamiyatliisi, zamonaviy kiberlaboratoriya 439 ta murakkab raqamli tadqiqot va ekspertiza o'tkazilib, 189 ta kiberjinoiyat fosh etilgan.

Akademiyaning loyiha ofisida AQSH, Yaponiya, Germaniya, Janubiy Koreya, Rossiya, Sloveniya va Shveysiya kabi davlatlardan jalb qilingan ekspertlar hamkorligida 15 dan ortiq loyihalar amalga oshirilmoqda.



O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Matbuot xizmati surati.

PARLAMENTLARARO MULOQOTNING MUHIM PLATFORMASI

Parlamentlararo muloqotlar davlatlar o'rtasida o'zaro ishonch va ochiqlikni kuchaytirib, munosabatlarni chuqurlashtirish, barqaror taraqqiyot va tinchlikni ta'minlashda muhim o'rin tutadi. Shu nuqtayi nazardan, 16-dekabr kuni Toshkent shahrida “Inson qadriini ulug'lash, ijtimoiy adolat va atrof-muhitni muhofaza qilish yo'lida hamkorlik” mavzuida Markaziy Osiyo davlatlari va Koreya Respublikasi parlamentlari rahbarlarining uchinchi yig'ilishi bo'lib o'tgani e'tiborga molik.

Forum

Unda Koreya Respublikasi Milliy Assambleyasi Raisi U Von Sik, Qozog'iston Respublikasi

Majlisi Raisi Yerlan Koshanov, Tojikiston Respublikasi Majlisi Namoyandagon Majlisi Oli Raisi o'rinbosari Aziz Qodir Giyozoda, Qirg'iz Respublikasining O'zbekiston Respublikasidagi

Favqulodda va muxtor elchisi Duyshonqul Chotonov hamda Turkmanistonning mamlakatimizdagi elchixonasining Muvaqqat ishlar bo'yicha vakili Sapa Annaorazov ishtirok etdi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Raisi Tanzila Norboyeva yalpi majlisda so'zlagan nutqida mazkur uchrashuv Markaziy Osiyo mintaqasida shakllanib borayotgan yangi siyosiy dinamika, parlamentlararo ishonch va muloqotning mustahkamlanishida muhim o'rin tutishini ta'kidladi.



STRATEGIK SHERIKLIKNI KENGAYTIRISHNING MUSTAHKAM KAFOLATI

Markaziy Osiyo davlatlari va Koreya Respublikasi parlamentlari rahbarlarining uchinchi yig'ilishi doirasida Oliy Majlis Senati Raisi Tanzila Norboyeva Tojikiston Respublikasi Majlisi Namoyandagon Majlisi Oli Raisining o'rinbosari Aziz Qodir Giyozoda bilan uchrashdi.

Uchrashuv

Unda ikki davlat rahbarlari o'rtasidagi o'zaro ishonchga asoslangan munosabatlar mamlakatlarning strategik sherikligini izchil rivojlantirish uchun mustahkam asos bo'lib

xizmat qilayotgani qayd etildi.

Suhbat chog'ida Markaziy Osiyo davlatlari va Koreya Respublikasi parlamentlari rahbarlari uchinchi yig'ilishining ahamiyati va uning natijalari yuzasidan fikr almashildi.



O'ZARO HURMAT VA ISHONCHGA ASOSLANGAN MUNOSABATLAR

Oliy Majlis Qonunchilik palatasi Spikeri Nuriddin Ismoilov Markaziy Osiyo davlatlari va Koreya Respublikasi parlamentlari rahbarlarining uchinchi yig'ilishi doirasida mamlakatimizga rasmiy tashrif bilan kelgan Koreya Respublikasi Milliy Assambleyasi Raisi U Von Sik boshchiligidagi delegatsiya bilan uchrashdi.

Xalqaro hamkorlik

Uchrashuvda so'nggi yillarda O'zbekiston va Janubiy Koreya o'rtasidagi munosabatlar o'zaro hurmat, ishonch va strategik sheriklik tamoyillariga asoslangan holda izchil rivojlanib borayotgani,

oliy darajadagi muloqotlar faollashib, qo'shma loyihalar va tashabbuslar orqali o'zaro manfaatli aloqalar yangi bosqichga ko'tarilgani qayd etildi.



YANGI OʻZBEKISTON: TARAQQIYOT ODIMLARI

JENEVADA “YANGI OʻZBEKISTON: SHAVKAT MIRZIYOYEV YOʻLI” KITOBI TAQDIMOTI

Kecha Jeneva shahridagi Millatlar saro-yida “Yangi Oʻzbekiston: Shavkat Mirziyoyev yoʻli” kitobining taqdimoti boʻlib oʻtdi, deb xabar qilmoqda “Dunyo” AA muxbiri.

Biz va jahon

Tadbirida Inson huquqlari boʻyicha Oʻzbekiston Respublikasi Milliy markazi direktori Akmal Saidov, mamlakatimizning BM Tning Jenevadagi boʻlinmasi huzuridagi doimiy vakili Eldiyor Toshmatov, Jeneva Diplomatik doirasi prezidenti Robert F. Blyum, “Diva International” jurnali bosh muharriri Marit Fosse, diplomatik vakolatxonalar, xalqaro tashkilotlar, ekspert doiralari va ommaviy axborot vositalari vakillari ishtirok etdi.

Qatnashchilar Yangi Oʻzbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar, davlat boshqaruvi, inson huquqlarini taʼminlash, iqtisodiyot, taʼlim, gender tenglik va tashqi siyosat sohalaridagi oʻzgarishlar haqida fikr almashdi.

Taniqli oʻzbek siyosatshunosi, senator, Oʻzbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasi raisi Quadratilla Rafiqov qalamiga mansub ushbu kitobda Yangi Oʻzbekistonnin barpo



etishning asosiy bosqichlari va Prezident Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan boshlangan tizimli oʻzgarishlar aks ettirilgan. Nashr davlat boshqaruvi, iqtisodiyot, ijtimoiy siyosat, gender tenglik, inson huquqlarini himoya qilish sohasidagi islohotlar, mamlakatimizning jahon siyosatidagi oʻrni boʻyicha tahliliy qarashlarni oʻzida mujassam etgan.

Tadbir davomida ishtirokchilar kitobning asosiy gʻoyalarni muhokama qilib, mamlakatda amalga oshirilayotgan oʻzgarishlar surʼati haqida fikr almashdi. Qonun ustuvorligini mustahkamlash, inson huquqlari himoyasi mexanizmlarini takomillashtirish, iqtisodiy institutlarni modernizatsiyalash, ayollar va yoshlar uchun

imkoniyatlarni kengaytirish, Oʻzbekistonning mintaqaviy va global diplomatiyadagi rolini oshirish masalalariga alohida eʼtibor qaratildi.

Soʻzga chiqqanlar kitob eng yangi islohotlar mantigʻi va davlat taraqqiyotining strategik yoʻnalishini yanada chuqur anglash imkonini beruvchi qimmatli tadqiqot ekanini taʼkidladi. Ishtirokchilarning fikricha, taqdim etilgan asar Oʻzbekistonda roʻy berayotgan transformatsiya jarayonlarini teran tushunishga intilayotgan xalqaro hamjamiyat uchun muhim manba hisoblanadi.

“Yangi Oʻzbekiston: Shavkat Mirziyoyev yoʻli” kitobi diplomatlar va ekspertlar tomonidan davlatning siyosiy irodasi, ijtimoiy talablari va modernizatsiya surʼatlarini aks ettiruvchi xolis va keng qamrovi asar sifatida yuqori baholandi.

GʻALABALAR TASODIFIY EMAS

Oʻzbekistonda soʻnggi yillarda amalga oshirilayotgan islohotlar doirasida yoshlar siyosati va parasport sohasi davlat taraqqiyotining muhim strategik yoʻnalishlaridan biriga aylandi. Bu yoʻnalishda olib borilayotgan izchil va maqsadli davlat siyosati oʻzining aniq natijalarini xalqaro maydonda namoyon etmoqda.

Faxr

Xususan, V yoshlar Paraosiyo oʻyinlarida Oʻzbekiston yosh parasportchilari tomonidan 197 ta medal, shu jumladan, 99 ta oltin medal qoʻlga kiritilishi mamlakat rahbariyati tomonidan belgilab berilgan inklyuziv rivojlanish va yoshlarni qoʻllab-quvvatlash strategiyasining amaliy ifodasidir. 35 ta davlat ishtirok etgan musobaqada Oʻzbekiston delegatsiyasining umumjamoa hisobida 1-oʻrinni egallashi davlatning sport siyosati tasodifiy emas, balki tizimli, ilmiy asoslangan va institutsional yondashuvlarga tayanayotganini koʻrsatadi. Bu natija parasport sohasida boshqaruvning markazlashgan modelidan natijaga yoʻnaltirilgan, samaradorlikni ustuvor qoʻygan yangi davlat siyosati shakllanganidan dalolat.

Umuman, bu yutuqlar Oʻzbekistonning xalqaro sport arenalarda pozitsiyalarini mustahkamlab, mamlakatning Osiyo qitʼasida parasport sohasida siyosiy va ijtimoiy taʼsir kuchi ortib borayotganini anglatadi. Sportning bu turidagi yetakchilik – faqat sport muvaffaqiyati emas, balki inson kapitaliga sarmoya kiritish, ijtimoiy adolat va teng imkoniyatlar tamoyillarini davlat siyosati darajasida taʼminlashning yorqin namunasini.

Shu bilan birga, gʻolib yosh parasportchilarning davlat rahbariyati tomonidan eʼtirof etilishi va ommaviy ravishda qadrlanishi davlat – jamiyat – yoshlar oʻrtasidagi ishonchni mustahkamlab, vatanparvarlik, fuqarolik masʼuliyati va milliy gʻururni shakllantirishga xizmat qilyapti. Bu jarayon yoshlarning davlat siyosatiga daxldorlik hissini oshirib, Oʻzbekistonda ijtimoiy barqarorlik va milliy birlikni taʼminlashning muhim siyosiy omillaridan biriga aylanmoqda. Shu bilan birga, yoshlarda vatanparvarlik, ijtimoiy masʼuliyat va yuqori sport natijalariga intilishni yanada kuchaytirishga xizmat qilmoqda.

Jahon tajribasida parasportni qoʻllab-quvvatlashga, avvalo, inklyuziv jamiyatni

shakllantirish, inson kapitali sifatini oshirish va ijtimoiy tenglikni taʼminlashning muhim instrumenti sifatida qaraladi. Bu borada rivojlangan davlatlar – Yaponiya, Xitoy, Janubiy Koreya va Avstraliya kabi mamlakatlar parasportni davlat siyosati darajasida qoʻllab-quvvatlab kelmoqda. Xalqaro solishtirma tahlil shuni koʻrsatadiki, aksariyat davlatlarda parasport yutuqlari, asosan, yuqori moliyaviy sarmoya, uzoq yillik tajriba va keng infratuzilmaga tayangan holda qoʻlga kiritiladi. Oʻzbekiston misolida esa yuqori natijalarga nisbatan qisqa vaqt ichida erishilishi davlat boshqaruvida natijaga yoʻnaltirilgan, markazlashgan va ilmiy asoslangan siyosat samarasi sifatida namoyon boʻlmoqda. Bu mamlakatda parasportni rivojlantirishda institutsional islohotlar, kadrlar tayyorlash, sport tibbiyoti va reabilitatsiya tizimi kompleks tarzda joriy etilganini koʻrsatadi.

Shuningdek, xalqaro amaliyotda parasport koʻpincha faqat natijalar bilan baholansa, Oʻzbekistonda unga ijtimoiy siyosatning muhim qismi sifatida qaralmoqda. Bu yondashuv BM Tning Inklyuziv rivojlanish va Barqaror rivojlanish maqsadlari bilan ham mos kelib, jismoniy imkoniyati cheklangan yoshlarning jamiyat hayotida toʻliq ishtirok etishini taʼminlashga qaratilgan. Shu maʼnoda, Oʻzbekiston tajribasi parasportni inson qadri, ijtimoiy adolat va teng imkoniyatlar tamoyillari bilan uygʻunlashtirgan model sifatida xalqaro maydonda qiziqish uygʻotmoqda.

Parasport sohasida qoʻlga kiritilayotgan yutuqlar Oʻzbekistonning xalqaro sport maydonidagi raqobatbardoshligini oshirish bilan birga, mamlakatning ijtimoiy-siyosiy nufuzini ham mustahkamlamoqda. Bu esa Oʻzbekistonn Osiyo qitʼasida parasport sohasida nafaqat sport natijalari, balki inklyuziv davlat siyosati bilan ham yetakchi mamlakatlar qatoridan oʻrin olayotganini koʻrsatib turibdi.

Jamila BOBONAZAROVA,
Oliy Majlis Senati aʼzosi.

Soʻnggi yillarda Oʻzbekiston jadal rivojlanib, nafaqat Markaziy Osiyo mintaqasida, balki xalqaro maydonda ham oʻziga xos oʻrin egallamoqda. Ochiq va pragmatik tashqi siyosat, chuqur iqtisodiy islohotlar hamda madaniy diplomatiyaga eʼtibor tufayli mamlakatimiz xalqaro ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy tadbirlar oʻtkaziladigan yirik markazga aylanib bormoqda.

Sarhisob

Mamlakatimizning xalqaro tadbirlar uchun jozibador markazga aylanishi bir nechta omillar bilan izohlanadi. Birinchidan, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tashabbusi asosida amalga oshirilayotgan Yangi Oʻzbekistonning taraqqiyot strategiyasi mamlakatni har tomonlama modernizatsiya qilishga qaratilgan boʻlib, u ochiqlik, inson huquqlarini himoyalash, tadbirkorlikni rivojlantirish va mintaqaviy hamkorlikni kuchaytirish kabi ustuvor yoʻnalishlarni oʻz ichiga oladi. Bularning barchasi xalqaro hamjamiyatning ishonchini qozonishga xizmat qilmoqda.

Ikkinchidan, Oʻzbekiston Markaziy Osiyoda yaxshi qoʻshnichilik munosabatlarni mustahkamlash, savdo-iqtisodiy aloqalarni chuqurlashtirish borasida yetakchi rolni oʻynamoqda. Shuningdek, BMT, SHHT, TDT, MDH kabi xalqaro tashkilotlar doirasidagi faol ishtirok mamlakatimiz nufuzini tobora oshirmoqda.

Uchinchidan, liberalashtirilgan iqtisodiyot, xorijiy investorlar uchun yaralgan qulay sharoitlar, erkin iqtisodiy zonalarning kengayishi Oʻzbekistonn yirik iqtisodiy forumlar va sammlar uchun jozibador manzila aylantirmoqda.

Toʻrtinchidan, Buyuk Ipak yoʻli chorrahasida joylashgan Samarqand, Buxoro, Xiva kabi qadimiy shaharlar Oʻzbekistonning madaniy diplomatiyasi uchun beqiyos imkoniyatlar yaratadi. Bu qadamlar xalqaro madaniyat, turizm va ilmiy anjumanlar oʻtkazish uchun ajoyib maydondir.

Oʻzbekistonning soʻnggi yillarda SHHT sammiti (2022, Samarqand), TDT sammiti (2022, Samarqand), BMT Jahon sayyohlik tashkiloti Bosh assambleyasi (2023, Samarqand), Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki Boshqaruvchilar kengashining yigʻilishi (2023, Samarqand) kabi yirik tadbirlarga muvaffaqiyatli mezbonlik qilgan mamlakatning xalqaro anjumanlarni oʻtkazish borasidagi salohiyatini namoyon etdi. Buning natijasi oʻlaroq Oʻzbekiston 2025-yilda ham bir necha bor davrimizning eng muhim masalalari muhokama qilinadigan tadbirlarni oʻtkazish uchun tanlab olindi va bot-bot dunyo hamjamiyatining diqqat markazida boʻldi.

Oʻzbekistonning boy tarixiy va madaniy merosi uni ilmiy va madaniy diplomatiya markaziga aylantirmoqda. Ilmiy, madaniy va taʼlim tadbirlari mamlakatimizning “yumshoq kuch”ini oshirib, uning jahon sivilizatsiyasiga qoʻshgan hissasini keng targʻib qilishda muhim vosita boʻlmoqda. Oʻtayotgan yilning fevralida “Alisher Navoiy va Sharh Rennessans” IV xalqaro simpoziumi qadimiy Oʻzbekiston zaminida, goʻzal Zarafshon vohasida Sharq Uygʻonish davrining yorqin namoyandasi, buyuk shoir va mutafakkir Mir Alisher Navoiy nomi ila ataladigan navqiron shaharda oʻtkazilgani bilan eʼtibori boʻldi. Bu galgi anjumanda Osiyo, Afrika, Yevropa va Amerika qitʼalari mamlakatlaridan koʻplab taniqli olim va tadqiqotchilar ishtirok etgani ham bu fikrni yaqqol tasdiqlaydi. 26-aprel kuni IV xalqaro baxshichilik sanʼati festivalining koʻhna Sharq gavhari – betakror Xorazm diyorida oʻtkazilgani unga alohida ruh va mazmun bagʻishladi. Bu oʻlkaning dostonchilik maktabi gʻoyat qadimiy va boy tarixga ega boʻlib, “Lazgi” kabi dunyoga mashhur mumtoz kuy-qoʻshiqlari, goʻzal raqslari aynan ana shu ilidzlardan oziqlanib kelmoqda, desak, adashmagan boʻlamiz.

Azim Samarqandda buyuk alloma Imom Abu Mansur Moturidiy tavalludining 1155-yilligiga bagʻishlab “Moturidiylik – bagʻrikenglik, moʻtadillik va maʼrifat taʼlimoti” mavzuidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman ham Oʻzbekistonning dunyo ijtimoiy-siyosiy, maʼnaviy-maʼrifiy

markaziga aylanib borayotganini koʻrsatdi. “Kalom ilmining sultoni”, “Musulmonlar eʼtiqodini tuzatuvchi” degan yuksak eʼtiroflarga sazovor boʻlgan Imom Moturidiy Oʻrta asrlarda – gʻoyaviy kurashlar avj olgan oʻta murakkab davrda islom dinining insonparvarlik mohiyatini keng ochib beradigan noyob ilmiy-maʼrifiy asarlar yaratgani, turli zararli oqimlar va jaholatga qarshi mardona kurash olib borgan, hech shubhasiz, chinakam maʼnaviy jasorat namunasidir. Buyuk vatandoshimiz asos solgan oʻlmas taʼlimot muqaddas dinimizning ezu gʻoyalarni soxtalashtirish, ulardan gʻarazli maqsadlarda foydalanishga qaratilgan buzgʻunchi harakatlarga zarba berishda muhim oʻrin tutadi.

Oʻtayotgan yilning sentabrda Qoʻqonda uchinchil Xalqaro hunarmandchilik festivali va Xalqaro kulolchilik forumi xalq amaliy sanʼatini, uning rivojlanish tarixi, maktab va anʼanalarini oʻrganish va targʻib etishga xizmat qildi. Anjumanda dunyoning 70 dan ziyod mamlakatlardan 300 nafarga yaqin muhbir hunarmandlar, xalqaro tashkilotlar, madaniy va ilmiy jamoatchilik vakillari ishtirok etgani uning xalqaro nufuzi va obroʻ-eʼtibori tobora ortib borayotganidan dalolat beradi.

Oktyabr oyining oxirida YUNESKO Bosh konferensiyasining 43-sessiyasi



DUNYO NAZARIGA TUSHGAN YURT

Forum ishida Yevropa kengashi Prezidenti Antoniu Koshta, Yevropa komissiyasi Prezidenti Ursula fon der Lyayen, Markaziy Osiyo mamlakatlari yetakchilari, Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki rahbari Odil Reno-Basso, Yevropa iqtisodiy komissiyasi ijrochi kotibi Tatyana Molchan, Choʻllanishga qarshi kurashish konvensiyasi ijrochi kotibi Ibrohim Tiav hamda 2 mingdan ortiq xorijiy mehmonlar, jumladan, milliy va global ekologik tashkilotlar, xalqaro tuzilmalar rahbarlari, ekspertlar, olimlar va jurnalistlar, biznes vakillari Markaziy Osiyo oldida turgan dolzarb iqlim muammolarini muhokama qilishdi, ekologik barqarorlik, “yashil” iqtisodiy taraqqiyot va iqlim oʻzgarishiga qarshi kurashishda mintaqaviy hamkorlik masalalarini koʻrib chiqdi.

Oradan ikki kun oʻtib Toshkentda Parlamentlararo Ittifoqning 150-yubiley assambleyasi oʻz ishini boshladi. Anjumanda 140 ga yaqin davlatlardan 2 mingdan ziyod delegatlar qatnashdi. Oʻz safida 181 ta milliy parlament va 15 ta mintaqaviy uyushmani birlashtirgan Ittifoq assambleyasi ilk bor Markaziy Osiyo mintaqasida boʻlib oʻtdi. Taʼkidlash joizki, Oʻzbekiston tashabbusi bilan bu galgi assambleya “Ijtimoiy taraqqiyot va adolat uchun parlament harakati” mavzuiga bagʻishlandi. Anjumanda ishtirok etib,

lyul oyining boshida Samarqandda Birlashgan Millatlar Tashkilotining davlat xizmati boʻyicha forumi oʻtkazildi. “2030-yilga qadar 5 yil: barqaror kelajak uchun xizmat koʻrsatish jarayonlarini jadallashtirish” mavzuida oʻtkazilgan mazkur xalqaro anjuman global taraqqiyotda muhim oʻrin tutadigan davlat boshqaruvi va xizmati tizimini takomillashtirishga, bu borada xalqaro hamkorlikni mustahkamlashga xizmat qilishi, shubhasiz.

Avqust oyida oʻtkazilgan “Oʻzbekiston, Oʻzbekiston, Oʻzbekiston: umumiy taraqqiyot yoʻlida hamkorlik” mavzuidagi yuqori darajadagi uchrashuvda Markaziy Osiyo va Janubiy Kavkaz oʻrtasidagi oʻzaro bogʻliqlik masalalari, ushbu ikki yirik mintaqaning Yevropa bilan hamkorlik istiqbollari muhokama markazida boʻldi. Anjumanda oʻzaro hamjihatlik va hamkorlik jarayonlari jadallashtirish borayotgan Markaziy Osiyoni jahonga yanada kengroq tanishtirish, mintaqalararo oʻzaro bogʻliqlikni mustahkamlash, shuningdek, Oʻzbekiston va Oʻzbekistonning salohiyat hamda imkoniyatlaridan toʻliq foydalanish yuzasidan fikr almashildi.

Namangan shahrida 17-sentabr kuni “Kambagʻallikdan farovonlik sari” III xalqaro forumi dunyoda kuzatilayotgan geosiyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy beqarorlik, iqlim oʻzgarishlari taʼsirida global iqtisodiy oʻsish sekinlashgani, oqibatda kambagʻal aholi soni oshganiga eʼtibor qaratish imkonini berdi. Kambagʻallikni bartaraf etish borasida Oʻzbekiston tajribasi bilan tanishish imkoniyati tugʻildi. Davlatimiz rahbari oʻz nutqida “Kambagʻallikdan – farovonlik sari” dasturining mazmun-mohiyatiga batafsil oʻxtaldi.

“Barqaror energetika – Yangi Oʻzbekistonning kelajak sari ishonchli qadami” mavzuidagi xalqaro anjuman doirasida soha rivojiga juda katta hissa qoʻshadigan qariyb 11 mlrd. dollarlik 42 ta yangi quvvat va infratuzilma obyekti ishlarga tushirildi. Yana 21 ta yangi loyiha qurilishiga start berildi. Ular toʻliq quvvatda ishlay boshlagach, yiliga 15 mlrd. kilovatt-soat elektr generatsiya boʻladi.


Markaziy Osiyo barqarorligi nafaqat mintaq, balki butun Yevrosiyo qitʼasi uchun muhim ahamiyatga ega. Shu maʼnoda, 2025-yilda Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining navbatdagi Maslahat uchrashuvi yoki MDH, SHHT, TDTga aʼzo mamlakatlar turli idora va vazirliklarining oʻzaro muloqotlari Oʻzbekistonda oʻtkazilishi mamlakatimizning mintaqaviy xavfsizlikni mustahkamlash, terrorizm, ekstremizm va narkotrafikka qarshi birgalikda kurashish, chegaroldi savdo va transport koridorlarini rivojlantirish masalalarini muhokama qilishda muhim platforma vazifasini bajarganini koʻrsatadi.

Oʻzbekistonning xalqaro ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy tadbirlar oʻtkaziladigan yirik markazga aylanish jarayoni tarixiy zarurat va strategik qarorlarning mantiqiy natijasidir. 2025-yilda mamlakatda oʻtkazilgan har bir yirik tadbir, xoh u iqtisodiy forum, xoh xavfsizlik sammiti yoki madaniy festival boʻlsin, Oʻzbekistonning xalqaro maydondagi obroʻsini yanada mustahkamladi, mintaqaviy va global jarayonlardagi faol ishtirokini taʼminladi. Bu tadbirlar nafaqat mamlakatning oʻziga, balki butun Markaziy Osiyo mintaqasining barqarorligi va taraqqiyotiga ham ulkan hissa qoʻshadi. Oʻzbekiston kelajakda ham ochiqlik, hamkorlik va taraqqiyot yoʻlidan borib, xalqaro hamjamiyatning faol aʼzosi boʻlib qolishiga ishonamiz.

Abduvali SOYIBNAZAROV
 (“Xalq soʻzi”).

Jahon banki Oʻzbekistonda kichik va oʻrta biznesni qoʻllab-quvvatlash, tadbirkorlikni rivojlantirish maqsadida 100 mln. AQSH dollari miqdorida mablagʻ ajratadi.

SUN'IY INTELLEKT – YUKSALISHNING STRATEGIK YO'NALISHI



Sun'iy intellekt (SI) XXI asrda taraqqiyotning strategik resursiga aylandi. U iqtisodiyot, sog'liqni saqlash, ta'lim, boshqaruv, axborot kommunikatsiyalari, xavfsizlik kabi sohalarining asosiy transformatsiya omillaridan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. Shu bois ko'plab davlatlar SI sohasida yetakchilikni qo'lga kiritish uchun fundamental ilmiy tadqiqotlar, kadrlar tayyorlash, raqamli infratuzilma yaratish va xalqaro hamkorlikni kuchaytirishga katta e'tibor qaratmoqda.

Nuqtai nazar

O'zbekistonda ham 2021-yilda Prezidentimizning "Sun'iy intellekt texnologiyalarini jadal joriy etish uchun shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori imzolangan bo'lsa, 2024-yilda Sun'iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilga qadar rivojlantirish strategiyasi tasdiqlandi. Shu chora-tadbirlarning davomi sifatida 2026/2027 o'quv yilidan boshlab ta'limda, xususan, maktablarda informatikaga sun'iy intellekt mavzulari qo'shiladi. Tadqiqot va ilmiy infratuzilmalarda yangi SI laboratoriyalari, ma'lumot markazlari, "Big Data" bazasi, milliy sun'iy intellekt modellari yaratish ustida ish olib borilmoqda.

Texnologiya va innovatsiyalarga asoslangan sheriklik

2024-yilda O'zbekiston va Janubiy Koreya davlatlari rahbarlari texnologiya va innovatsiyalarga asoslangan yangi strategik sheriklik haqida kelishuvga erishdi. Bunda yarimo'tkazgichlar, kimyo, avtomobilsozlik, "aqlli" qishloq xo'jaligi, infratuzilma, shaharsozlik, ta'lim sohalarini ustuvor yo'nalishlardir.

Janubiy Koreya yarimo'tkazgichlar bo'yicha global yetakchi hisoblanib, O'zbekiston bilan mintaqada birinchi to'liq ilmiy-ishlab chiqarish klasteri tashkil etishni rejalashtirmoqda. Mamlakat O'zbekiston uchun intellektual mulk va patent tizimlarini takomillashtirishda SI asosidagi patent va trademark boshqaruv tizimini yetkazib beradi. Bu ham texnologik hamkorlik va huquqiy infratuzilmani modernizatsiyalash yo'lidagi yangi qadam bo'ladi.

Moliyaviy tizim va davlat moliyaviy boshqaruvida SI yechimlarini qo'llash, jumladan, xarid-tenderlar, davlat xarajatlari, byudjet boshqaruvi va moliyaviy jarayonlarni avtomatlashtirish, raqamli transformatsiya maqsad qilingan. O'zbekiston sanoatini modernizatsiyalash, yuqori qo'shilgan qiymat zanjirini yaratish ko'zda tutilgan. Bularning bari raqamli iqtisodiyotga to'liq o'tish, davlat boshqaruvi va moliyaviy tizimlarini yangilash, shaffoqlikni oshirishga yo'l ochadi. Ilmiy va innovatsion salohiyatni yuksaltirishda R&D, IT, sun'iy intellekt, ta'lim sohalarida tajriba va bilim almashish jarayonlarini tezlashtiradi. Texnologik transfer va yuqori malakali kadrlar tayyorlash esa O'zbekistonning

Janubiy Koreya kabi yetakchi davlatlar bilan hamkorlik ta'lim sifatini oshirish imkonini berishini e'tirof etmoq joiz. Ho-zirgi kunda ushbu mamlakat dunyoning eng rivojlangan 3 ta SI davlati qatoriga kirishga harakat qilmoqda.

Universitetimiz uchun istiqbolli yo'nalishlar

Forumd Navoiy davlat universitetining ham CI bo'yicha ilmiy tadqiqot salohiyati taqdim etildi. Chunonchi, sun'iy intellekt yo'nalishidagi mavjud ilmiy maktablar, IT-park bilan hamkorlikda olib borilayotgan loyihalar, Navoiy viloyatidagi korxonalar bilan birgalikda yo'lga qo'yilayotgan raqamli transformatsiya ishlari, yosh tadqiqotchilar uchun CI kompetensiyalari bo'yicha yaratilgan ilmiy laboratoriyalar haqidagi ma'lumotlar Janubiy koreyalik hamkorlarda katta qiziqish uyg'otdi.

Shuningdek, Navoiy viloyatining innovatsion infratuzilmasi hamda hududning sanoat klasterlari, tog'-kon va metallurgiya yo'nalishidagi yirik korxonalar, raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish strategiyasi, yoshlarni IT va CI sohalariga jalb etish tashabbuslari xalqaro ekspertlarga taqdim qilinish natijasida Janubiy Koreya universitetlari

Janubiy Koreya oliygoahlari bilan hamkorlik

Bucheon universiteti texnik ta'lim, axborot texnologiyalari, muhandislik, media texnologiyalari, sog'liqni saqlash va amaliy fanlar bo'yicha yetakchi akademik markazlardan biridir. Uchrashuvda IT, kompyuter injiniringi, elektrotexnika, mediadizayn va amaliy fanlar bo'yicha qo'shma o'quv dasturlarini yo'lga qo'yish, talabalar uchun 1-2 semestrlik almashinuv dasturlarini tashkil qilish, dual ta'lim elementlarini joriy etish, Bucheon universitetining ishlab chiqarish bilan integratsiyalashgan ta'lim modeli asosida oliygohimizda amaliyotga yo'naltirilgan dars jarayonlarini kuchaytirish, talabalarning korxonalar bilan hamkorlikdagi loyihalarda ishlashi uchun yangi imkoniyatlar yaratish belgilandi.

Gvangju shahrida joylashgan Honam universiteti bilan memorandum imzolash jarayonida turizm va xizmat ko'rsatish sohalarida qo'shma dasturlarni yo'lga qo'yishni muhokama qildi. Boisi Navoiy viloyatida sayyohlik infratuzilmasi kengayib, yangi turizm loyihalari

2024-yilda O'zbekiston va Janubiy Koreya davlatlari rahbarlari texnologiya va innovatsiyalarga asoslangan yangi strategik sheriklik haqida kelishuvga erishdi. Bunda yarimo'tkazgichlar, kimyo, avtomobilsozlik, "aqlli" qishloq xo'jaligi, infratuzilma, shaharsozlik, ta'lim sohalarini ustuvor yo'nalishlardir.

va texnoparklari bilan yangi hamkorlik istiqbollari shakllandi.

Forum doirasida universitetlar bilan qo'shma ta'lim dasturlari muhokama qilinib, sun'iy intellekt va kompyuter injiniringi bo'yicha qo'shma bakalavriat hamda magistratura dasturlarini ochish, professor-o'qituvchilar almashinuvi, qo'shma ilmiy laboratoriyalar tashkil etish, navoiylik talabalar uchun Janubiy Koreyadagi CI markazlarida stajirovka dasturlarini yo'lga qo'yish bo'yicha muzokaralar olib borildi.

Muhokama qilingan ilmiy mavzular asosida CI ta'lim modelini joriy etish bo'yicha Navoiy davlat universiteti uchun dolzarb bo'lgan qator metodologik yondashuvlar tavsiya etildi. Adaptiv o'quv tizimlari, ma'lumotlar tahlili asosida o'qitish sifatini oshirish, CI yordamida o'qituvchilarning yuklamasini optimallashtirish shular jumlasidan bo'lib ushbu yondashuvlar, ayniqsa, IT, texnika, iqtisodiyot va pedagogika yo'nalishlariga tatbiq qilinishi istiqbolli hisoblanadi.

Forum doirasida universitetimiz va Koreya Respublikasining nufuzli oliy ta'lim muassasalari – Bucheon va Honam universitetlari bilan o'zaro hamkorlik memorandumlari imzolandi.

shakllanib bormoqda. Natijada xalqaro turizm boshqaruvi bo'yicha qo'shma o'quv dasturlari, viloyatning tarixiy-madaniy merosi asosida yangi ta'lim modullarini ishlab chiqish, Honam universitetining o'quv-uslubiy tajribasidan foydalanib professor-o'qituvchilar malakasini oshirish, Janubiy Koreya tajribasi asosida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etish rejalashtirildi. Shuningdek, lingvistika, koreys tili, xalqaro ta'lim va madaniyat yo'nalishlarida qo'shma tadqiqotlar, talabalar almashinuvi yo'lga qo'yishga kelishib olindi.

Navbatdagi manzil – Suvon shahri bo'ldi. Bu yerda faoliyat yuritadigan Ajou universiteti global miqyosda muhandislik, IT, tibbiyot, biznes va innovatsiyalar bo'yicha yetakchi oliy ta'lim muassasalaridan

Forum natijalari kelajakda butun mintaqada ilmiy-texnologik rivojlanishning yangi bosqichiga zamin yaratadi. Zero, forumning asosiy g'oyasi SI davrida inson kapitalini rivojlantirish, ta'lim tizimini yangi ilmiy-metodik yondashuv asosida modernizatsiya qilish va xalqaro hamkorlikning samaradorligini oshirish ekan, ushbu masalalar Navoiy davlat universitetining strategik yo'nalishlari bilan hamohangdir.

Muhiddin KALONOV,
Navoiy davlat universiteti rektori vazifasini bajaruvchi,
fanlari doktori, professor.

REKLAMA

“Elektron Realtor” MCHJ



to'g'ridan-to'g'ri muzokaralar olib borish yo'li bilan tashkillashtiriladigan ko'chmas mulklar va ularga bo'lgan huquqlar bo'yicha o'tkaziladigan savdoga taklif etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 15-apreldagi 142-qaroriga asosan “O'zsanoatqurilishbank” ATB balansida bo'lgan:

– Toshkent viloyati, Parkent tumani, “Chotqol” MFY, Tong yulduzi ko'chasi, 323-A” uйда joylashgan g'isht zavodi binosi sotiladi.
Sotish sharti va narxi bo'yicha “www.e-rieltor.uz” sayti orqali, savdoga qo'yilgan mulklar bilan esa bevosita joyiga chiqib tanishish mumkin.

Savdoda ishtirok etish uchun talabgorlar “e-rieltor.uz” platformasi orqali ariza berishlari lozim.

Call-markaz:
+99855-517-22-20.
Rasmiy saytimiz:
www.e-rieltor.uz

“E-AUTOTECH” MCHJ

to'g'ridan-to'g'ri muzokaralar olib borish yo'li bilan tashkillashtiriladigan avto, maxsus transport, uskunalar va ularga bo'lgan huquqlar bo'yicha o'tkaziladigan savdoga taklif etadi.



O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 15-apreldagi 142-qaroriga asosan “O'zsanoatqurilishbank” ATB balansida bo'lgan:

■ Toshkent shahri, Sergeli tumani, “So'g'diyona” MFY (Sergeli 3-mavzesi, 4- uy)da joylashgan frontal pogruzhchik;
■ Sirdaryo viloyati, Yangiyer shahri, Alisher Navoiy ko'chasi, 7-uyda joylashgan paypoq ishlab chiqarish uskunasi sotiladi.

Sotish sharti va narxi bilan “e-autotech.uz” sayti orqali tanishish mumkin.

Savdoga qo'yilgan mulklarni bevosita joyiga chiqib ko'rish imkoniyati mavjud.

Savdoda ishtirok etish uchun talabgorlar “e-autotech.uz” platformasi orqali ariza berishlari kerak.

Call markaz: +99855-517-22-20. Rasmiy saytimiz: www.e-autotech.uz



O'zbekiston media futbol ligasining ilk mavsumi 2026-yilda o'tkaziladi

O'zbekiston media futbol ligasining (United MFL) dastlabki mavsumiga bag'ishlangan konferensiyada ma'lum qilinganidek, mamlakat sportida ilk bor amalga oshirilayotgan ushbu loyiha Sport vazirligi, Milliy olimpiya qo'mitasi va O'zbekiston futbol assotsiatsiyasi rahbariyati tomonidan qo'llab-quvvatlanadi.



Tashabbus hamyurtlarimiz orasida sog'lom turmush tarzini targ'ib etish, shuningdek, futbolga bo'lgan qiziqishni yanada oshirishga xizmat qiladi. Bo'lajak musobaqa rejasiga ko'ra, chempionat 2026-yilning 1-mart kuni start olib, 14-iyungacha davom etadi. Unda 16 jamoa qatnashadi. Shu bilan birga, kelgusida “United MFL” doirasida kubok bellashuvlarini tashkil qilish ham ko'zda tutilgan.

Bekzod Qurbonov – oltin medal sohibi

BAAning Abu-Dabi shahrida ot sportining konkur yo'nalishi bo'yicha “CSI4” tasnifidagi xalqaro musobaqa bo'lib o'tdi.



Mazkur nufuzli bellashuvda ishtirok etgan O'zbekiston terma jamoasi a'zosi Bekzod Qurbonov oltin medalga sazovor bo'ldi. Yurtdoshimiz ushbu muvaffaqiyatga 135 sm. balandlikdagi to'siqdan sakrash dasturida erishdi. Chavandozimiz “Santos Hippica” laqabli tulpori bilan 91 nafar ishtirokchi orasida eng yuqori natijani qayd etdi.

Yosh qilichbozlarimiz muvaffaqiyati

O'tgan hafta yakunida turli shaharlarda qilichbozlik bo'yicha yoshlar o'rtasidagi jahon kubogi bosqichlari o'tkazildi.



Xususan, Toshkent shahrida tashkil etilgan bellashuvlarda shpaga bo'yicha yigitlar o'rtasidagi jamoaviy musobaqada hamyurtlarimiz shohsupaning uchinchi pog'onasiga ko'tarilishdi.

Vengriyada o'tgan qizlar o'rtasidagi sablya bahslarida ham yurtdoshlarimiz kuchli uchlikdan joy olishga muvaffaq bo'ldi.

Murosasiz kechgan turnir

Turkiyada shaxmat bo'yicha turkiy tilda so'zlashuvchi davlatlar chempionati tashkil etildi. Mazkur musobaqada 8 ta jamoa g'oliblikka da'vogarlik qilib, har bir jamoa 2 nafar shaxmatchi bilan 7 ta turdan iborat bahslarda o'zaro kuch sinashdi. O'zbekiston terma jamoasi sharafiga Muhammadzohid Suyarov va Ruqiya Olimova himoya qildi.

Musobaqada hamyurtlarimiz o'tkazilgan turlarning beshtasida g'alaba, bitta durang va bitta mag'lubiyat holatini qayd etdi va 11 ochko jamg'arib, 2-o'rinni egalladi. Shaxmatchilarimiz singari 11 ochkoga ega Ozarbayjon terma jamoasi qo'shimcha ko'rsatkichlar evaziga 1-o'rinni, 9 ochkoni qo'lga kiritgan Turkiya terma jamoasi shaxmatchilari 3-o'rinni band etdi.

“Xalq so'zi”.

Tavakkal Qodirov tavalludining 100-yiligini nishonlash YUNESKOning xalqaro yubileyar ro'yxatiga rasman kiritildi.

Xalq so'zi Narodnoe slovo

MUASSISLAR:
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi
Qonunchilik palatasi Kengashi
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi
Senati Kengashi

Bosh muharrir O'tkir RAHMATOV

2020-yil 25-martda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 0001-raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr indeksi – 229. Buyurtma G-1242. 10 379 nusxada bosildi. Hajmi – 3 taboq. Ofset usulida bosilgan. Qog'oz bichimi A-2. Bahosi kelishilgan narxda.

Gazetamiz haqidagi ma'lumotlarni yuklab olish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.



TELEFONLAR:
Devonxona 71-259-74-51; Kotibxona 71-259-74-53;
e'lonlar 71-259-74-55.



Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida teriladi hamda operator A. Ismailov tomonidan sahifalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifati chop etilishiga “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi mas'ul.
Bosmaxona telefoni: 71-233-11-07.

“Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi. Korxona manzili:
Buyuk Turon ko'chasi, 41. O'ZA yakuni – 01.50 Topshirildi – 02.00

1 2 3 4 5 6